Qon plazmasidagi bilirubin miqdorini reagentsiz tezkor aniqlash imkoniyatini beruvchi qurilma

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti tomonidan ishlab chiqilgan kichik o’lchamli mobil qurilma qon plazmasidagi umumiy billirubin miqdorini reaktivsiz usul yordamida kam vaqt davomida baholash imkonini beradi.

Ushbu qurilma yordamida oilaviy poliklinikalarda va ko’chib yuruvchi mobil laboratoriyalarda qo’llanish hisobiga odam organizmining sog’ligini belgilovchi asosiy organi bo’lgan jigarining ishlash samaradorligini ekspress ravishda tashxishlash mumkin.

Qurilmaning muhim xususiyatlaridan biri bu uning kichik o’lchamliligi, mobil, ya’ni, dala sharoitida ham, qisqa vaqt oralig’ida va reagentsiz, qo’shimcha kimyoviy moddalarsiz to’g’ridan-to’g’ri olishdadir. Qurilma energiya tejamkor bo’lib, dala sharoitida ishlashi uchun kichik o’lchamli akkumulyatorlardan ham foydalansa bo’ladi. Qurilmada 100 ta o’lchash natijalarini saqlash imkoniyati ham mavjud.